

IMPORTANT ISSUES OF APPLYING NORMS OF INTERNATIONAL LAW IN NATIONAL COURTS

Sharipov Elbrus Qarshi o'g'li

University World Economy and Diplomacy, faculty international law

master of international law faculty

Annotation. This article describes the practice of applying the norms of international law in national court in the Republic of Uzbekistan

Keywords: norm of international law, new strategy of new Uzbekiston, Habeas corpus, single window principle, United Nations, national research.

Annotatsiya. Mazkur maqola Xalqaro huquq normalarini milliy sudlarda qo'llash masalalarini O'zbekiston Respublikasidagi amaliyoti haqida

Kalit so'zlar: Xalqaro huquqiy normalar, Habeas corpus, yagona darcha tamoyili, Yangi O'zbekistonning yangi taraqqiyot strategiyasi, Birlashgan Millatlar Tashkiloti.

Аннотация. В данной статье описана практика применения норм международного права в национальном суде Республики Узбекистан.

Ключевые слова: нормы международного права, новая стратегия нового Узбекистана, Habeas корпус, принцип «единого окна», ООН, национальные исследования.

Kirish. Xalqaro huquq normalarini milliy sudlarda qo'llash xalqaro hamkorlarning O'zbekistonning tadbirkorlik sub'ektlari bo'lmish yuridik va jismoniy shaxslariga bo'lgan ishonch darjasini oshirib, davlatimiz xalqaro hamkorligi hajmini oshirish, investitsiyalarni jalb etish, davlatlararo munosabatlarni o'rnatish va rivojlantirishga xizmat qiladi. Eng muhimi, xalqaro huquq normalarini sudlarda qo'llash masalalari ham nazariy, ham o'quv-tarbiyaviy, ham yuridik amaliyot nuqtai-nazaridan O'zbekistonning xalqaro huquq doktrinasida tadqiq etilayotgan dastlabki ilmiy izlanishlardan biri hisoblanadi.

Asosiy qism. Bugungi kunda mamlakatimiz ijtimoiy-huquqiy hayotini demokratlashtirish va modernizatsiya qilish sharoitida sudlar faoliyatida nafaqat milliy qonunchilikni, balki xalqaro huquq normalarini qo'llash amaliyotini takomillashtirish sud-huquq tizimi islohotlarining asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda. xalqaro huquq normalarining ustuvorligi, ahamiyati va rivoji uning muayyan mamlakat milliy huquq tizimida tutgan o'rni, unga bo'lgan munosabati bilangina emas, davlat organlari, avvalambor, sudlar faoliyatida bevosita qo'llanilishi bilan ham bog'liqdir. Bu 2020 yil 30 iyul kuni Odil sudlovni ta'minlash va korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi vazifalar muhokamasiga bag'ishlangan videoselektorda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Miromonovich ta'kidlaganlaridek, "Sud binosiga kelgan har bir inson O'zbekistonda adolat borligiga ishonib ketishi kerak. Bu Prezident talabi!"¹.

Inson huquqlari — oliy qadriyat. Ularning amalda ta'minlanishi, fuqarolarning huquq va erkinliklarini muhofaza qilinishi hamda buzilgan huquqlarining tiklanishi bevosita sud hokimiyatining mustaqilligi, adolatli va xolis qaror qabul qilishi bilan baholanadi. Bu isbot talab qilmaydigan haqiqatdir.

Yurtimizda ushbu sohani rivojlantirish yo'lida barcha choralar ko'rib, sudlarning mustaqilligini ta'minlash, haqiqiy odil sudlovni amalga oshirish va pirovardida inson haq-huquqlarini himoya qilish borasida ijobiy natijalarga erishilyapti.

Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi adolat va qonun ustuvorligini ta'minlash bo'yicha belgilangan vazifalar doirasida 2022-yilda ijtimoiy himoyaga muhtoj fuqarolarga jinoyat ishlari bilan bir qatorda fuqarolik va ma'muriy ishlar bo'yicha ham davlat hisobidan bepul yuridik yordam ko'rsatish tartibi joriy, qarori, harakati (harakatsizligi) noqonuniy emasligini ma'muriy sudda isbotlash majburiyatini, uni qabul qilgan mansabdor shaxsning o'ziga yuklash tartibiga amal

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning ma'ruzalaridan iqtiboslar// Sudya ma'naviyati, odobi, va mas'uliyati. – T "Muharrir nashriyoti", 2021. – B.7

qilinishi qat'iy ta'minlash, "Xabeas korpus" institutini yanada rivojlantirish orqali tergov ustidan sud nazoratini kuchaytirish, Sud protsessida tomonlarning haqiqiy tenglik va tortishuv tamoyillarini ro'yobga chiqarish, sudlar tizimida "yagona darcha" tamoyilini keng joriy etish maqsadida arizalarni sudga taalluqligidan qat'iy nazar, qabul qilish va vakolatli sudga yuborish hamda muayyan ish doirasida barcha huquqiy oqibatlarni hal qilishni ta'minlash tizimini joriy etish, sud tizimini bosqichma-bosqich raqamlashtirish, byurokratik g'ov va to'siqlarni bartaraf etish orqali fuqarolar va tadbirkorlik sub'ektlarining odil sudlovga erishish darajasini tubdan oshirish, nizolarni hal etishning muqobil usullaridan keng foydalanish uchun zarur tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlarni yaratish, yarashuv institutini qo'llash doirasini yanada kengaytirish, sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta'minlashda sudyalarning hamjamiyati organlarining rolini yanada oshirish, sudyalarning o'zini o'zi boshqarish tamoyilini keng joriy etish hamda sudyalarga g'ayriqonuniy tarzda ta'sir o'tkazishning oldini olish bo'yicha ta'sirchan mexanizmlarni yaratish, sudyalarning korpusini shakllantirishda ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash, sud tizimidagi rahbarlik lavozimlariga tayinlashda saylanish va hisobdorlik kabi demokratik tamoyillarni joriy etish, sud tizimini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tizimlashtirish ishlarini olib borish kabi asosiy vazifalar amalga oshirish belgilangan.

Holbuki, xalqaro huquq normalarini sudlarda qo'llashning huquqiy mexanizmini takomillashtirish, ayniqsa, huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari hamda sud'yalarning xalqaro-huquqiy savodxonligini oshirish masalalari bir qator xalqaro hujjatlarda ham alohida qayd etilgan. Davlat organlari, xususan, sudlar o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga : O'zbekiston Respublikasi bilan Bolgariya Respublikasi o'rtasida "Jinoiy ishlar bo'yicha huquqiy yordam ko'rsatish to'g'risida"gi shartnoma , O'zbekiston Respublikasi Hukumati bilan Rossiya Federatsiyasi Hukumati o'rtasida o'zaro savdoda bilvosita soliqlarni undirish tamoyillari to'g'risidagi bitim hamda

O'zbekiston Respublikasi va Germaniya Respublikasi o'rtasida daromad va mulk soliqlari yuzasidan ikki yoqlama soliqqa tortishning olish to'g'risida bitim kabi xalqaro shartnomalarni ana shu toifaga kiritish mumkin

Xulosa. Bugungi kunda sud'yalarning deyarli 30 % dan kam qismi xalqaro huquq normalarini milliy sudlarga qo'llay olishadi. Bu esa o'z navbatida O'zbekistonning milliy qonunchiligimizning xalqaro maydonda Xalqaro huquq normalarini qo'llashdagi sohasida oqsoqlanishimizni anglatadi. Shu sababli Xalqaro huquq normalarini qo'llashga oid aniq bir qonun hamda boshqa huquqiy xujjatlarni ishlab chiqsak madsadga muvofiq bo'lardi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. *Mirziyoev Sh. M.* Erkin va farovon, demokratik O'zbekistonda davlatni birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 104 b.
2. *Mirziyoev Sh. M.* Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib–intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent: O'zbekiston, 2016. – 56 b
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning ma'ruzalaridan iqtiboslar// Sudya ma'naviyati, odobi, va mas'uliyati. – T “Muharrir nashriyoti”, 2021. – B.7
4. *Odilqoriyev H.T.*, O'zbekiston davlati va jamiyati innovatsion rivojlanishining huquqiy jihatlari/ O'quv qo'llanma. – T .: INNOVATSION RIVOJLANISH NASHRIYOIT MATBAA UYI, 2019.
5. *Правовое регулирование внешнеэкономической деятельности в Республике Узбекистан. Коллективная монография // Ответственный редактор Б.Б.Самарходжаев, д.ю.н., проф. – Ташкент, Университет мировой экономики и дипломатии, 2019 г*
6. *Менглиев Ш. Международное частное право. – Душанбе: ТНУ, 2013.*